ILMIY TADQIQOTLAR VA JAMIYAT MUAMMOLARI
nomli ko'p tarmoqli masofaviy,onlayn respublika konferensiyasi

Sayt havolasi:https://e-conference.uz/index.php/itjm Oktabr,2026

JANUBIY KOREYA OMMAVIY MADANIYATINING ÕZBEKISTON YOSHLARI MADANIY INDENTIKLIGI VA QADRIYATLARIGA TA'SIRI.

Sabirova Umida Farxadovna
Sotsiologiya fanlar doktori (DSc), Õzbekiston Milliy universiteti, Sotsiologiya kafedrasi dotsenti
Telefon raqami:+998994881025
Umidasobirova68@gmail.com

Yusubaliyeva Shabnam Hasanboy qizi
Õzbekiston Milliy unversiteti,"Sotsiologiya"yõnalishi 1-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23832250

Globallashuv davrida ommaviy madaniyat xalqaro miqyosda yoshlar dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy omillardan biriga aylandi. Oxirgi õn yillikda Markaziy Osiyo, xususan, Õzbekiston Ijtimoiy-madaniy muhitida Janubiy Koreya ommaviy madaniyati-Hallyu (koreys tõlqini) katta muvaffaqiyatga erishdi. K-pop, musiqa, K-dramalar, koreys modasi va oshxonasi õzbek yoshlarining kundalik hayot tarzi, muloqat tili hamda qadriyatlar tizimiga chuqur kirib bormoqda.

Bu ijtimoiy hodisa yoshlarning madaniy õzligini saqlashi va õzbek oilaviy qadriyatlariga mos ravishda yashashi õrtasidagi muvozanat masalasini yuzaga chiqaradi. Mazkur tadqiqotning maqsadi - koreys ommaviy madaniyatining Õzbekiston talabalari tomonidan qabul qilinish xususiyatlarini aniqlash va uning milliy identiklikka ta'sir darajasini sotsiologik usullar yordamida baholashdan iborat.

Koreys ommaviy madaniyatining yoshlar ongiga ta'siri jins va yosh omillariga kõra turlicha namoyon bõlib, qizlarda estetik qarashlar va hissiy ochiqlik kuchaygan bõlsa, yigitlarda pragmatik va mehnatsevarlik qadriyatlari ustunlik qiladi. Shuningdek 16-19 yoshdagi õsmirlarda individualizim va zamonaviy identiklik yuqori darajada shakillanayotgani kuzatilsa,20-25 yoshdagi talabalar xorijiy madaniyatini ta'lim va ratsional yondashuv asosida muvozanatli qabul qilmoqda.

Olingan sotsiologik natijalar shuni kõrsatadiki, õzbek yoshlari koreys madaniyatini kõr-kõrona qabul qilmayabdi. Aksincha, ular Janubiy Koreya madaniyatini õz milliy qadriyatlari asosida baxolamoqda.Masalan, koreys seriallaridagi kattalarga hurmat, oilaviy munosabatlar va jamoaviylik kabi xislatlar õzbek mentalitetiga juda yaqin bõlgani sababli, yoshlar ongida hech qanday ichki ziddiyat keltirib chiqarmaydi. Bu jarayon madaniy assimilatsiyani emas, balki ikki sharqona madaniyatning bir-biri bilan uyğunlashuvini ifodalaydi. Ayniqsa, til õrganish va zamonaviy kasblarga bõlgan intilish yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu madaniy sintez faqatgina tashqi kõrinish yoki kiyim-kechakda emas, balki yoshlarning ijtimoiy xulq-atvori va hayotiy jarayonlarda ham yaqqol namoyon bõlmoqda. Koreys ommaviy madaniyatidagi "palli-palli"(tezroq-tezroq) falsafasi-ya'ni vaqtni qadrlash, doimiy harakatda bõlish va qat'iy intizom tamoyillari õzbek yoshlarining õz ustida ishlash, biznes loyihalar yaratish va startaplar boshlashga bõlgan intilishlari bilan uyğunlashib ketadi. Shuningdek, milliy tõy va marosimlarda koreys estetikasi elementlardan masalan: fotozonalar, dizayni, minimalist taklifnomalar va kofeshop madaniyati foydalanish ommalashmoqda, biroq bu asosi-mehmondõstlik, qarindoshlik rishtalari va milliy taomlar õzgarishsiz qolib, õz qadriyatlarini saqlagan holda, ularni zamonaviy hayotga moslashtirib kelmoqda.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ijobiy tomonlar bilan bir qatorda, ushbu jarayonning ba'zi salbiy sotsiologik tendensiyalari ham kõzga tashlanadi. Koreys kontentini haddan tashqari kõp istemol qilish yoshlarning virtual dunyoga qaram bõlib qolishiga olib kelmoqda. Bu holat baz'an real hayotdan uzilish, oila a'zolari bilan jonli muloqotning kamayishi va milliy urf-odatlarga nisbatan befarqlik kõrinishida namoyon bõladi. Ayniqsa õsmirlar õrtasida mashxur koreys qahramonlariga taqlid qilish oqibatida õz tashqi kõrinishidan qoniqmaslik yoki õzbekona andisha me'yorlaridan biroz uzoqlashish holatlari uchramoqda.

Umumiy xulosa õrnida aytishim mumkunki, Janubiy Koreya ommaviy madaniyati Õzbekiston yoshlari madaniy identikligini yoq qilib yuborayotkani yõq, balki unga yangicha zamonaviy ranglar qõshmoqda. Yoshlar globallashuv davrida xorijiy madaniyatning kreativlik va mehmondõstlik fazilatlari bilan birlashtirmoqdalar. Salbiy oqibatlarning oldini olish uchun ta'lim muassasalarida yoshlarning media-savodxonligini oshirish, yoshlar õrtasida soğlom madaniy immunitetni shakillantirish sotsiologik nuqtai nazardan muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RÕYXATI:

1. Appadurai, A. Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization. University of Minnesota Press, 1996.
2. Hall, S. Cultural Identity and Diaspora.Madaniy identiklikka oid ilmiy esse.
3. Korea Foundation for International Cultural Exchange (KOFICE).2024 Overseas Hallyu Survey.2024.
4. Salikbaeva, G. O. Modern Youth of South Korea: Between Traditions and Technologies. 2025. DOI: 10.55640/ eijps-05-01-09.
5. Õzbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 20-apreldagi PF-66-son Farmoni, "Yangi Õzbekiston yoshlari – 2030" strategiyasi.
6. "Õzbekiston – 2030" strategiyasi. Õzbekiston Respublikasi rasmiy axborot portali.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.